

Mahjuriy ijodining o'rganilish masalasi

Saloxiddinova Nigoraxon Inomjonovna

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent v.b.

"UNIVERSITY OF ECONOMICS AND PEDOGOGY" NOTM. Andijon

Annotatsiya. Maqolada XX asr Andijon adabiy muhitida ijodi to'liq o'rganilmagan Muhammadxon Mahjuriy haqida mulohazalar keltirilgan

Kalit so'zlar. XX asr Andijon adabiy muhiti, Andijon adabiy gurungi” , “Visoling orzusi” , “Kitob muallifi haqida”, Po'lotjon Domulla Qayyumov, “Tazkirai Qayyumi”

XIX asrning oxiri va XX asr adabiyoti haqida gap ketganda, avvalo, davrning, mavjud tuzumning ta'siri haqida ham to'xtalish lozim. Chunki o'lkada yuz bergan ijtimoiy-siyosiy voqealar jamiyatning barcha sohalariga dahl qilganidek, badiiy adabiyotning mavzular ko'lamiga, badiiyatiga o'z ta'sirini o'tkazdi. Adabiyotshunos olim Qozoqboy Yo'ldosh: “Biror badiiy asarning tasvir nozikligini, badiiyati o'ziga xosligini, obrazlar sistemasini to'g'ri tushunmoq, tili jozibasini his etmoq uchun shu asar yaratilgan davr badiiy tafakkuriga xos xususiyatlarni bilish kerak bo'ladi¹ - deganda ayni mulohazalarimizga javob sifatida keladi. XX asr Andijon adabiy muhiti haqida so'z yuritilganda ham davr ruhiga hamohanglik, mavzular mushtarakligi, g'oyalilar umumiyligi kuzatiladi. Jumladan, shoirlar ijodida bilimli bo'lishga chaqirish, o'zga tillarni o'rghanish, ma'rifikatni, ma'rifikatli kishilarni ulug'lash g'oyalari asosiy o'rinni egallay boshladi. Aksincha, ma'rifikatsiz, qoloq, dangasa kishilar jamiyat uchun keraksiz ekanliklari ba'zan ibrat, nasihat va hatto satira bilan ifoda etildi. Mavjud siyosiy tuzum hattoki shoiru-yozuvchilarni bir bo'lishga, bir xil g'oyani ilgari surishga undadi. Ular o'rtasidagi adabiy hamkorlik va mushtaraklik adabiy muhitning rivojlanishiga muhim rol o'ynadi.

Hamma davrlarda ham badiiy adabiyotning yuksalishi va taraqqiy etishida adabiy muhitlarning o'rni bo'ladi. Qo'qon, Xiva, Toshkent kabi shahar va muzofotlarda qalam tebratgan shoir va yozuvchilar o'ziga xoslik asosida adabiy muhitning shakllanishiga muhim hissa qo'shganlar. Ana shunday ijodkorlardan biri bu Andijon adabiy muhiti namoyondasi Muhammadxon Mahjuriydir.

Umuman olganda, badiiy adabiyotda tarixiy taraqqiyot jarayonlarini, undagi mavjud an'ana va yangilanishlarni tub mohiyatini aniqlash, unga doir manbalarni

¹ Yo'ldoshev Q. Yoniq so'z. – Toshkent: Yangi asr avlod, 2006. – B. 11.

batafsil o'rganish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Ana shunday masalalar bevosita adabiy muhitga bog'lab tahlil etilganda bir adabiy davraga mansub shoirlar ijodining mushtarak va farqli jihatlari aniq namoyon bo'ladi.

"Ko'p asrlik mustahkam ildizga ega Andijon ma'naviy zaminida adabiy jarayon vaqt o'tishi bilan to'xtab qolmay, aksincha, rivojlanishda davom etdi. Bu taraqqiy va yangilanishlar, ayniqsa, XIX asr so'nggi choragi va XX asr boshlarida yashab qalam tebratgan Manzur, Ojiz, Muntazir, Bimiy, Muhib, Pirimqori, Qori Zokir, Hofiz, Mushtoq va Mavjiy kabi shoirlar ijodida yaqqol namoyon bo'ladi"², – deb yozadi I.A.Madgaziyev.

Yuqoridagi fikrlarga qo'shimcha qilgan holda aynan XX asr Andijon adabiy muhiti vakili Muhammadjon Mahjuriy va unga zamondosh shoirlar ijodini ham adabiy muhit takomilidagi o'rmini ta'kidlab o'tish lozim. Lekin Mahjuriy she'riyatining g'oyaviy-badiiy xususiyatlari, mavzular va janrlar xilma-xilligi, an'anaviyligi va xalqchilligi masalalariga munosabat o'zbek adabiyotshunosligida to'liq o'rganilmaganligi ishning yanada dolzarbligini belgilaydi. Ushbu ijodkor to'g'risidagi asosiy ma'lumotlar "Andijon adabiy gurungi" va shoirning "Visoling orzusi" to'plamida "Kitob muallifi haqida" qismida berib o'tilgan. Muhammadxon Mahjuriyning tarjimai holi haqida dastlabki ma'lumotlar esa Po'lotjon Domulla Qayyumovning "Tazkirai Qayyumiylar" asarida berilganligini ko'rishimiz mumkin.

Po'lotjon Domulla Qayyumovning "Tazkirai Qayyumiylar" asarida o'zbek adabiyotining o'rta asrlardan XX asrlargacha bo'lган davrda yashab ijod etgan ko'plab vakillari haqida ma'lumot beriladi. Kitobning 3-jildida esa XX asrda yashab ijod etgan shoirlar hayoti va qisman ijodidan namunalar keltirilgan. Shunday bo'lsada bu tazkiralar o'zbek adabiyotida hali ijodi to'liq o'rganilmagan shoirlar haqida ma'lumot beruvchi birlamchi vazifa o'taydi. "Tazkirai Qayyumiylar"da "MAHJUR II – Bu shoir Andijon atrof qasabalaridan Qo'qon qishloq nomli joyda olim oilasida dunyoga kelmishdur. Nomi mulla Muhammadxon mahdum bo'lib, Mulla Ishoqxon o'g'lidur. Zamonamizda hayot va keksa shoirlarimizdandur. Andijon shaharida nash'u namo etmish. San'at va adabiyot ahlidan bo'lib, badihago'y shoirdir. Shoir Charxiyning aytuvlaricha, Andijon teatrusida suflerliq xizmati ham bo'l mish adabiy emakdon bo'lib turmushdurlar"³. Po'lotjon Domulla Qayyumovning ushbu tazkirasi o'zbek adabiyotshunosligida nomi ma'lum bo'lsada, hali ijodi to'liq o'rganilmagan shoirlar haqida ma'lumot beruvchi qimmatli manba ekanligi bilan ajralib turadi. Ushbu tazkirada Mahjuriy qalamiga mansub

² Madgaziyev I. XIX asr so'nggi choragi va XX asr boshlari Andijon adabiy muhiti manbalari

³ Po'lotjon Domulla Qayyumiylar "Tazkirai Qayyumiylar". – Toshkent, 1998. – B. 637.

“Uchrashib” radifli g’azalining matla’si va maqtasi, “Mayliga” radifli g’azalining esa to’liq varianti keltirilganligini ko’rishimiz mumkin:

“Ko’z uchida bir qarab kuydursangiz ham mayliga
G’amza tig’ida meni o’ldursangiz ham mayliga.

Chin ko’nguldin bir vafog’a va’da aylab lutf ila
Qancha chekmakg’ja jafo ko’ndursangiz ham mayliga.

Laylidek mehru muhabbat bog’lab ey jonon sizga
Elga Majnundek meni kuldursangiz ham mayliga.

Sizga Mahjur ixtiyorin berdi ovlab ko’nglini
So’ngra ko’zga qon yoshin to’ldirsangiz ham mayliga”⁴.

G’azal ishqiy mavzuda bo’lib, shoir Firoqiy tomonidan ushbu g’azalga muxammas bitilganligi tazkirada qo’shimcha ma’lumot sifatida keltirib o’tilgan.

Mahjuriy domlaning tarjimai holi haqida “Andijon adabiy gurungi” to’plamida quyidagicha ma’lumotlar uchraydi. “Muhammadxon mulla Is’hoq qori o’g’li 1889-yilning avgust oyi, dushanba kuni “Yayılma” mavzesida (hozirgi Elektrosvigatel zavodi) tavallud topgan. Otalari mulla Is’hoq qori mukammal savodli, o’z zamonasining yetuk zabardast olimlaridan bo’lib, katta maktabdor edi. Onalari ham Hamrohbibi otin nomi bilan mashhur otin ayalardan bo’lgan”⁵. Yuqoridaq ma’lumotlar “Tazkirayi Qayyumiyy”dagi ma’lumotlarni yanada to’ldiradi. Shuningdek, ota-onasining ham ilm ahllaridan bo’lganligi Muhammadxon Mahjuriyning keyingi faoliyatiga ham o’z ta’sirini o’tkazadi. Manbalarda Mahjuriy besh yoshidayoq Qur’on ta’limini olganligi, yetti yoshida mukammal savod chiqarganligi⁶ keltiriladi. Albatta, bunday katta iqtidor o’z-o’zidan bo’lmaydi. Otasi mulla Is’hoq va onasining sa’y-harakatlari farzandiga ijobjiy ta’sir ko’rsatganligi bilan yuzaga chiqadi. Farzandidagi iqtidorni yanada o’strish maqsadida otasi Mahjuriyni Xo’jandga jo’natadi. U yerdagi “Miyon hazrat” madrasasidagi tahsildan so’ng shoir arab va fors-tojik tili grammatikasi hamda adabiyotini mukammal o’zlashtiradi. 20 yoshida Qur’oni to’liq hatm qilib, hofizi Qur’on darajasiga ko’tariladi. Yana zamonasining mashhur xattotlaridan Abdulmajid qozi Hofiz domladan xattotlik ilmini o’rganadi va zabardast xattot

⁴ Po’lotjon Domulla Qayyumiyy “Tazkirayi Qayyumiyy”. – Toshkent, 1998. – B. 638.

⁵ Is’hoqov.M. Andijon adabiy gurungi. – Toshkent: MUMTOZ SO’Z, 2013. – B.25.

⁶ Muhammadxon Mahjuriy. Visoling orzusi. – Toshkent: Akademnashr, 2019. – B. 4.

bo'lib yetishadi. Yigitlik davrlaridanoq "Mahjur" taxallusi bilan g'azallar yozganligi, o'tkir zehni, mantiqiy fikrlashi, she'riyatga nozik munosabatda bo'lganligi bilan xalq orasida katta obro'-e'tibor topganligi aytildi.

Andijon jome' madrasasida tahsil olib yurgan paytalaridayoq zamonasining mashhur kishilari Qori Zokir, Sayfiy, Anisiy, Ramziy, Habibiy, Ulfat bilan do'stlik rishtalarini bog'laydi. Bu do'stlik va adabiy aloqalar keyinchalik Andijon adabiy muhiti rivojiga munosib hissa qo'shilishiga sabab bo'ladi.